



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60111300 – Texnologik ta'lim
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60111300 – Texnologik ta'lim

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ZARIPOV LOCHIN RUSTAMOVICH

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: HAZBO SKOKO

Charles Sturt University

fan doktori (DSc), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260062
Xulosa raqami	1338
Xulosa sanasi	03.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000384, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Texnologik ta'lim
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60111300
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2734834, 20.02.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60111300 – Texnologik ta'lim
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60111300 – Technology Education
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60111300 – Технологическое образование
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	180 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	3 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Mazkur bobda 60111300 – “Texnologik ta'lim” bakalavriat ta'lim dasturini boshqarishning tashkiliy asoslari hamda ichki sifatni ta'minlash tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan me'yoriy hujjatlar, kafedra nizomlari va istiqbolli rivojlanish rejasi ta'lim dasturini amalga oshirishga mas'ul tarkibiy tuzilma shakllantirilgani, uning vakolatlari va funksional vazifalari aniq belgilanganini hamda dasturni zarur moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash bo'yicha tizimli rejalashtirish amalga oshirilganini tasdiqladi. Ichki sifatni ta'minlash tizimi muntazam monitoring va baholash mexanizmlariga asoslangan bo'lib, ushbu jarayonlarda professor-o'qituvchilar, talabalar hamda ish beruvchilarning faol ishtiroki ta'minlangani, shuningdek mehnat bozori talablari va ta'lim ehtiyojlarini o'rganishga qaratilgan monitoring tizimi izchil faoliyat yuritayotgani kuzatildi. Texnologik ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ish beruvchilar bilan uzluksiz hamkorlik va muntazam qayta aloqa mexanizmlarining yo'lga qo'yilgani ta'lim dasturi mazmunining zamonaviy ishlab chiqarish hamda ta'lim sohasidagi ehtiyojlarga mosligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan barcha talablarning bajarilayotganini namoyon etdi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Mazkur bobda 60111300 – “Texnologik ta'lim” bakalavriat ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi hamda amaldagi me'yoriy talablar bilan muvofiqligi baholandi. O'rganilgan ta'lim dasturi, o'quv reja va malaka talablari dastur mehnat bozori ehtiyojlari hamda amaldagi davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilganini, uning milliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari va ilg'or xalqaro tajribalar bilan

uyg'unlashtirilganini tasdiqladi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi nazarda tutilgan kasbiy kompetensiyalar Milliy malakalar ramkasi talablariga mos ravishda belgilangan bo'lib, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi ta'minlangani e'tirof etildi. Dastur 180 kredit hajmidagi uch yillik jadal ta'lim formatida tashkil etilgani sababli fanlar o'rtasidagi izchillik va uzviylikka alohida e'tibor qaratilgani, nazariy bilimlarni ustaxona mashg'ulotlari va amaliyot bilan integratsiyalash texnologik ta'lim yo'nalishida bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga to'liq mos shakllantirilganini o'z tasdig'ini topdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Mazkur bobda o'quv jarayonini tashkil etish, fan dasturlari, o'quv rejalari hamda talabalar bilimini baholash tizimining amaldagi holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar o'quv reja va fan dasturlari belgilangan me'yoriy-huquqiy talablar hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilganini, o'quv jarayoni esa ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga erishishni ta'minlashga yo'naltirilganini tasdiqladi. Talabalar bilimini baholash mezonlarining ochiqligi va xolisligi ta'minlangani, qayta aloqa hamda apellyatsiya tartiblari aniq belgilab qo'yilgani, shuningdek akademik halollik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilgani kuzatildi. Texnologik ta'lim yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, baholash vositalarini ustaxona mashg'ulotlari, amaliy topshiriqlar va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi faoliyat bilan uzviy bog'lash talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o'quv natijalariga erishishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlari mazkur yo'nalishda o'quv jarayoni va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiqlik ta'minlangani aniqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bobda talabalarni o'qishga qabul qilish, talabalar kontingenti harakatini boshqarish hamda ta'lim oluvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar qabul parametrlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilanganini, o'qishga qabul qilish, talabalarni ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, akademik ta'til berish va o'qishga qayta tiklash jarayonlari

shaffof hamda belgilangan tartiblar asosida tashkil etilganini tasdiqladi. Talabalarni akademik, ijtimoiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga zarur axborotlarni o'z vaqtida yetkazish hamda murojaatlar bilan ishlash mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Texnologik ta'lim yo'nalishining amaliy xususiyatini inobatga olgan holda, qabul parametrlarini universitetning mavjud moddiy-texnik bazasi, ustaxona va laboratoriya imkoniyatlari hamda pedagogik resurslari bilan muvofiqlashtirish ta'lim sifatini barqaror ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari talabalar faoliyatini tashkil etish akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga to'liq mosligini tasdiqladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bobda 60111300 – “Texnologik ta'lim” bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan inson resurslari salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda kadrlarni rivojlantirish tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan ma'lumotlar dasturda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning soni, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mos ekanini, ularning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv yo'lga qo'yilganini tasdiqladi. Kadrlarning malakasini muntazam oshirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarining samarali faoliyat yuritayotgani, shuningdek ta'lim dasturiga kiritilayotgan yangi fanlarni tegishli kompetensiyaga ega mutaxassislar bilan ta'minlash bo'yicha rejalashtirilgan ishlar olib borilayotgani kuzatildi. Texnologik ta'lim yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, professor-o'qituvchilarning ishlab chiqarish va amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi ta'lim sifati hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Shu bilan birga, amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga kengroq jalb etish ta'lim dasturining amaliy yo'nalishini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi e'tirof etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur talablarni ta'minlayotgani qayd etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda 60111300 – “Texnologik ta'lim” bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim infratuzilmasining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar va mavjud sharoitlar universitetning o'quv binolari, auditoriyalari, laboratoriyalari, Axborot-

resurs markazi hamda raqamli infratuzilmasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur talablarni qanoatlantirishini tasdiqladi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar, texnik vositalar va materiallar bilan ta'minlanganligi, fanlar kesimida yetarli o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy hamda elektron ta'lim resurslari mavjudligi, shuningdek raqamli ta'lim muhiti, LMS platformasi va internet tarmog'ining barqaror faoliyat yuritayotgani kuzatildi. Texnologik ta'lim yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, ustaxona va amaliyot bazasining yetarliligi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda belgilangan o'quv natijalariga erishishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarni to'liq qanoatlantirishi o'z tasdig'ini topdi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Monitoring va tahlil natijalarini aks ettiruvchi ichki hisobotlarni standartlashtirish hamda muntazamligini kuchaytirish zarurati mavjud.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv elementlarini kengaytirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ichki monitoring hisobotlarini standartlashtirish va ular asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari ijrosini baholab borish.
- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60111300 – "Texnologik ta'lim" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar,

o'quv-uslubiy ta'minot, boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik infratuzilmaning holati kompleks ravishda baholandi. O'rganish davomida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillarining izchil qo'llanilayotgani o'z ifodasini topdi. Shuningdek, talabalarni qabul qilish, ularning akademik faoliyatini boshqarish hamda har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan tartiblar asosida tashkil etilgani, professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi ta'lim dasturi talablariga mosligi hamda ustaxona va amaliyot bazasining o'quv jarayoni ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgani e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan barcha 6 bob va 27 ta mezon belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq muvofiq deb topildi. Bildirilgan tavsiyalar mavjud tizimni yanada takomillashtirish va ta'lim sifatini izchil rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular dastur bo'yicha umumiy bahoga ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 60111300 – "Texnologik ta'lim" bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga to'liq javob berishini hamda ta'lim jarayoni samarali tashkil etilganini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

